

O'ZBEKISTON VA JAHON TA'LIM SOHASIDAGI INNOVATSION LOYIHALAR VA TEKNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH.

Dehqonov Behzod Nekmurod o'g'li

Buxoro davlat universiteti "Tarix va yuridik fakulteti"
4-bosqich talabasi.

E-mail: dehqonovbehzod05@gmail.com

Tel: +998901803403

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10578900>

***Annotatsiya.** Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsiyalarni qo'llash, bu orqali maktab, texnikum, litsey, universitet muassasalarining dars jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish, o'qitishda samaradorlikni oshirish dolzarb masalalardan biridir.*

Maqolada jahondagi ta'lim muassasalarida eng ko'p qo'llanilgan va O'zbekistonda ularni tatbiq etishga qaratilgan loyihalar aytib o'tilgan.

***Kalit so'zlar:** AI, innovatsiya, ta'lim tizimi, raqamli texnologiya, krossover tizimi, virtual reallik, 3D model.*

DEVELOPMENT OF INNOVATIVE PROJECTS AND TECHNOLOGIES IN UZBEKISTAN AND WORLD EDUCATION.

***Abstract.** Today, the use of innovations in the education system, thereby improving the use of modern technologies in the teaching processes of schools, technical schools, lyceums, universities, and increasing the effectiveness of teaching is one of the most urgent issues. And projects aimed at their implementation in Uzbekistan are mentioned.*

***Key words:** AI, innovation, educational system, digital technology, crossover system, virtual reality, 3D model.*

РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ И ТЕХНОЛОГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ И МИРОВОМ ОБРАЗОВАНИИ.

***Аннотация.** Сегодня применение инноваций в системе образования, тем самым улучшая использование современных технологий в учебном процессе школ, техникумов, лицеев, вузов, повышая эффективность обучения, является одним из наиболее актуальных вопросов. были упомянуты проекты, направленные на их реализацию в Узбекистане.*

***Ключевые слова:** ИИ, инновации, образовательная система, цифровые технологии, кроссоверная система, виртуальная реальность, 3D-модель.*

Ta'lim tizimi - davlatning eng muhim sohalaridan biri bo'lib bu tizimni rivojlantirish orqali mamlakatdagi mavjud bo'lgan barcha tarmoqlarini yuksalishiga erishishimiz mumkin. Dunyoning eng rivojlangan davlatlarida ham ta'lim tizimiga e'tibor juda yuqori rivojlanganini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim tizimi shunchalik tez o'zgarimoqdaki o'quvchilar va o'qituvchilar zamonaviy strategiyalarga moslashishini talab qiladi. Tassavur qilaylik oddiy sinfxona, ma'ruza qilayotgan o'qituvchi va diqqatini bir joyga jamlashga harakat qilayotgan o'quvchilar. So'nggi paytlarda jahon mamlakatlaridagi ko'plab o'qituvchilar o'z darslarini turli xil yondashuvlar bilan o'quvchilarni o'qishga ko'proq jalb qilmoqdalar.

Ko'pgina maktablar, o'qituvchilar va murabbiylar o'quvchilarni qiziqtirish va faolligini oshirish uchun yangi normada innovatsion o'qitish strategiyalarni sinab ko'rishmoqda.

Raqamli texnologiyalar o'quvchilar ongiga kirishga yordam berib o'quvchilar tomonidan darslarni yaxshi tushunishi kuzatilmoqda. Innovatsion o'qitish tizimlariga yana bir qancha misollar keltirishimiz mumkin.

1.O'yinlarga asoslangan ilmiy bellashuvini tashkil etish. O'quvchi va talabalarni onlayn platformalar orqali qiziqarli bo'lgan va o'yin uslubida tashkil etiladigan bilimlar bellashuvida va qiziqarli ilmiy tanlovlarga jalb etish.

Bu bellashuv hamma ommaviy o'yinlar kabi ilmiy uslubda tashkil etiladi va o'quvchilar unga virtual o'yinlarga berilib ketgani kabi qiziqib bellashuvlarda qatnashadilar. O'yin g'oliblarini rag'batlantirish orqali qamrovini keng qilish mumkin.

2. Virtual reallikka asoslangan texnologiyalar. Bunda asosan o'quvchilar va talabalar 3D formatga ega sinfxonalarda tahsil olishadi. Ular o'zlari o'tayotgan mavzuni virtual reallikda ko'radilar va muloqot qila oladilar. Bu bilan bemaolol boshqa mamlakatlarga, tog'larga davrlarga o'zlarini his qilishlari mumkin.

Tassavur qiling siz sinfxonada tarix fani o'tyabsiz va siz paleolit, mezolit davrida bo'lib qolganday o'zingizni his qilmoqdasiz. Tassavur orqali sizning xotirangizga bir umr bu saqlanib qoladi.

3. Krossover o'qitish tizimi. Bunday tizimdan ko'plab mamlakatlar foydalanadi. Ammo bizning ta'lim tizimimizda juda kamdan-kam bunaqa tizimdan foydalaniladi. Bu sinfda o'tilgan mavzularni tashqarida ham sinash yoki ko'rish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Masalan siz tarix, geografiya yoki shunga aloqador fanlardan olgan bilimingizni haqiqiy hayotda ko'rmoqdasiz.

Bu sizga hayrat va zavq berishdan tashqari bir umrlik yoddan chiqmas ma'lumotlarni eslab qolish imkoniyatini beradi. Axir doskadan tashkil topgan bir sinfda diqqatni jamlashga harakat qilib ma'ruza eshitgandan ko'ra uni haqiqiy ko'rishga hech narsa yetmaydi.

4. 3D modeldagi darsliklar. Bu 3D modeldagi darsliklar orqali o'quvchilar va talabalar murakkab mavzuni ham yaxshi tushunishga va kengroq dunyoqarashga ega bo'lishga erishadilar.

Bu ayniqsa tibbiyot va shunga aloqador kimyo, fizik kabi soha va fanlarga oid darslarni o'qiyotgan talabalarga mavzuni o'rganishga juda qulaylik yaratadi.

5.Ta'lim tizimida sun'iy intellekt (AI). Ko'pchilik insonlar sun'iy intellektning yomon jihatlari haqida to'xtalib o'tadi. Uning ta'lim tizimida ijobiy taraflari ko'pligini aytib o'tmoqchiman.AI shunchalik murakkab va keng ma'lumotlarni jamlaydigan texnologiya.

Bunda maktablarda fanlarni baholash va yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalar bo'yicha fikr-mulohazalarni bilib olishimiz mumkin. Ko'pchilik narsalarni ham avtomatlashtirish mumkin. Oliy ta'lim sohasida diplom ishi, kurs ishi, attestatsiya, yakuniy nazoratlarda ham qo'llash orqali ko'chirmachilik kabi holatlatlarni oldini olishga yordam beradi.

Texnologiyalardan oqilona foydalanib ta'lim natijalarini o'zgartirish uchun infratuzilma va vositalarni o'rnatish uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha tajribali mutaxassis bilan hamkorlik qilish va ularni sonini ko'paytirishimiz eng yaxshi yondashuvlardan biridir.

Zamon rivojlangani sayin innovatsion texnologiyalar ko'paymoqda. Bunday texnologiyalardan esa ta'lim tizimida foydalanish o'quv jarayonlarini osonlashtirish va o'quvchilarning aqliy salohiyati oshirish garovi bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. <https://www.innovationunit.org>
2. <https://educationadvanced.com>